O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI


AKADEMIK LITSEYI

Filologiya kafedrasi

ADABIYOTI FANIDAN O‘QUV-USLUBIY KO‘RSATMA

(Oliy talimga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rish uchun)

Mualliflar: O.Raimjonov
A.Qurbonov



2024-2025-o‘quv yili

Ckahuposano c CamScanner

Scanned with CamScanner

Mazkur o‘quv-qo‘llanma maktab va akademik litseylarda dars beruvchi soha mutaxassislarga hamda adabiyot fanidan chuqurlashtirib o‘tiladigan yo‘nalishdagi o‘quvchilar uchun **amaliy** darslarda foydalanish uchun mo’jallangan.

Taqrizchi: J. Sayidolimov
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tuzuvchilar: O.Raimjonov
A.Qurbonov

Ushbu o‘quv-qo‘llanma **Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi pedagogik kengashining** 2024-yil 28-delabrdagi 5-sonli yig‘ilishida o‘quv jarayoniga qo‘lashga tavsiya etiladi.

Сканировано с CamScanner

Scanned with CamScanner

ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN MILLIY TEST TIZIMI UCHUN TEST VARIANTI TAFSILOTI

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi doirasida **ona tili va adabiyot fanidan** talabgorlarning bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

I. TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI ME’YORIY HUJJATLAR

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori;
- Ona tili va adabiyot faniga oid amaldagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.

II. QAMRAB OLINGAN BO‘LIMLAR

Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari asosida ona tili va adabiyot fanining quyidagi bo‘limlari qamrab olinadi:

1. Fonetika
2. Grafika
3. Orfografiya
4. Orfoepiya
5. Leksikologiya
6. Frazeologiya
7. Grammatika
8. Uslubiyat
9. Adabiyot tarixi
10. Adabiyot nazariyasi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI BAKALAVRIATIGA KIRISH TEST SINOVLARIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN FOYDALANILADIGAN TEST VARIANTI TAFSILOTI

1. Test variantining qo‘llanish maqsadi.

Ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlari O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga kirish test sinovlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlari hamda ona tili va adabiyot faniga oid umumta’lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo‘ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo‘luvchi me’yoriy hujjatlar:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga kirish sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-son qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori;

– Ona tili va adabiyot faniga oid amaldagi davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.

3. Ona tili va adabiyot fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Ona tili va adabiyot fanidan **mutaxassislik** hamda **majburiy fan** sifatida shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi va ta’limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo‘naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	**Fan mazmuni tarkibi**
	1. ADABIYOT
1.1	**Xalq og‘zaki ijodi.** Xalq og‘zaki ijodi tushunchasi. Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari. Xalq og‘zaki ijodining tur va janrlari. O‘zbek xalq dostonlari. “Ravshan” dostoni.
1.2	**Mumtoz adabiyot namunalari, ularning badiiy tahlili va muallif ijodiga oid ma’lumotlar.** Qadimgi davrdan boshlab XX asrgacha bo‘lgan adabiyot.Alisher Navoiyning hayoti va ijodi. Alisher Navoiy lirikasi. Navoiyning epik asarlari. Xamsachilik tarixi. Alisher Navoiy “Xamsa”si**.** Boborahim Mashrabning hayoti va ijodi. Mashrab lirikasi. Nodiraning hayoti va ijodi. Nodira lirikasi.Jahon Otin Uvaysiyning hayoti va ijodi. Uvaysiy lirikasi.
1.3	**XX asr o‘zbek adabiyoti va mustaqillik davri adabiyoti namunalari, ularning badiiy tahlili va muallif ijodiga oid ma’lumotlar.** Jadid adabiyoti. Adiblar ijodiga oid ma’lumotlar. Nasriy, she’riy, dramatik asarlarning badiiy tahlili. Abdulla Avloniyning hayoti va ijodiy faoliyati. Avloniy she’riyati, “Ikkinchi muallim” asari.Hamza Hakimzoda Niyoziy ning hayoti va ijodiy faoliyati. Hamza she’riyati.

	Abdulhamid Cho‘lpon ning hayoti va ijodiy faoliyati. Cho‘lponning lirikasi.
1.4	**Zamonaviy adabiyot**. Nasr. Adiblar ijodiga oid ma’lumotlar. Nasriyasarlarning badiiy tahlili. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi. Abdulla Qahhor hikoyalari. Asqad Muxtorning hayoti va ijodi. Odil Yoqubovning hayoti va ijodi. O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani. O‘lmas Umarbekovning hayoti va ijodi. “Qiyomat qarz” hikoyasi.
	Zamonaviy adabiyot. She’riyat. Shoirlar ijodiga oid ma’lumotlar. Lirik, liroepik asarlarning badiiy tahlili. Mirtemirning hayoti va ijodi. Mirtemirning she’riyati. Asqad Muxtor hayoti va ijodi. Asqad Muxtor she’riyati. Zulfiyaning hayoti va ijodi. Zulfiya she’riyati.Saida Zunnunova hayoti va ijodi. S.Zunnunova she’riyati. Shuhratning hayoti va ijodi. Shuhratning “Mardlik afsonasi” balladasi. Xayriddin Salohning hayoti va ijodi. X.Saloh she’riyati. To‘ra Sulaymonning hayot va ijodi. T.Sulaymon she’riyati.

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN BADIIY ASARLAR:

1. “Zarbulmasal” (Gulxaniy)
2. “O‘tkan kunlar” romani (Abdulla Qodiriy)
3. “Mehrobdan chayon” romani (Abdulla Qodiriy)
4. “Kecha va kunduz” romani (Abdulhamid Cho‘lpon)
5. “Tushda kechgan umrlar” romani (O‘tkir Hoshimov)
6. “Nur borki, soya bor” roman (O‘tkir Hoshimov)
7. “Ikki eshik orasi” roman (O‘tkir Hoshimov)
8. “Qiyomat” romani (Chingiz Aytmatov)
9. “Asrga tatigulik kun” romani (Chingiz Aytmatov)
10. “Me’mor” roman (Mirmuhsin)
11. “Xo‘jand qal’asi” romani (Mirmuhsin)
12. “Yulduzli tunlar” roman (Pirimqul Qodirov)
13. “Avlodlar dovoni” roman (Pirimqul Qodirov)
14. “Ko‘hna dunyo” romani (Odil Yoqubov)
15. “Ulug‘bek xazinasi” romani (Odil Yoqubov)
16. “Diyonat” romani (Odil Yoqubov)
17. “Oltin zanglamas” romani (Shuhrat)
18. “Jimjitlik” roman (Said Ahmad)
19. “Ufq” trilogiyasi (Said Ahmad)
20. “Lolazor” romani (Murod Muhammad Do‘st)
21. “Chinor” romani (Asqad Muxtor)
22. “Otamdan qolgan dalalar” romani (Tog‘ay Murod)
23. “Jaziramadagi odamlar” romani (Luqmon Bo‘rixon)
24. “Abulfayzxon” dramasi (Abdurauf Fitrat)
25. “Sohibqiron” dramasi (Abdulla Oripov)
26. “Temir xotin” komediyasi (Sharof Boshbekov)
27. “Dunyoning ishlari” qissasi (O‘tkir Hoshimov)
28. “Sarvqomat dilbarim” qissasi (Chingiz Aytmatov)
29. “Oq kema” qissasi (Chingiz Aytmatov)
30. “Jayhun ustida bulutlar” qissasi (Mirkarim Osim)
31. “Molxona” qissasi (Jorj Oruell)
32. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi (Tog‘ay Murod)
33. “Otoyining tug‘ilgan yili” qissasi (Erkin A’zam)
34. “Qorako‘z majnun”, “Qoplon”, “Sobiq” hikoyalari (Said Ahmad)
35. “Asror bobo”, “Ming bir jon”, “O‘g‘ri”, “Bemor” “O‘jar”, “San’atkor”, “Adabiyot muallimi” hikoyalari (Abdulla Qahhor)
36. “O‘zbeklar”, “Ot egasi” hikoyalari (Shukur Xolmirzayev)
37. “Hayotga muhabbat” hikoyasi (Jek London)
38. “Hellados” hikoyasi (Nodar Dumbadze)
39. “Garov” hikoyasi (Anton Chexov)
40. “Ruhlar isyoni” dostoni (Erkin Vohidov)

Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi filologiya kafedrasi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari O.Raimjonov va A.Qurbonovlarning Adabiyot fanidan imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha
o‘quv-uslubiy qo‘llanmasiga

TAQRIZ

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin ta’lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylanib, ushbu sohada tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. O‘zbek tili va adabiyoti o‘rganish esa bu boradagi muhim o`rinni egallaydi. O‘zbek tili va adabiyoti izchillikda o‘rganish o‘rta maxsus, professional, oliy ta’lim o‘quv yurtlarida davom ettirilmoqdi. Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ustivor vazifalarni hayotga izchil tatbiq etish va yosh avlodni ma’naviy qadriyatlarimizga cheksiz ehtirom ruhida tarbiyalashda muhim ekanligi, ona tilmizda paydo bo‘lgan muammolarning yechimiga yo‘l ochilganidan dalolatdir. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PQ-4910 “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori ijrosini amalga oshirish yuzasidan akademik litseylarda ham bir qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O’zbek adabiyotshunosligida badiiy adabiyot namunalaridagi mavzu va g‘oya, diniy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy tushunchalarni ifodalashning uslub hamda shakllarini poetika va poetik tafakkur talqini asosida tahlil qilish, ijodkor ma’naviy kamolotini, novatorligini aniqlash, tarixiy-qiyosiy jihatdan o‘rganish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shu jarayonda muayyan mutafakkir shoirning asarlarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatiga adabiy xulosa sifatida dunyoga

kelgan estetik tajribalar, poetik qonuniyatlarni o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Badiiy adabiyot san’atning murakkab va serqirra turi bo’lib, insonda yuksak ma’naviyatni shakllantirishning eng ta’sirchan vositasidir. Badiiy adabiyot san’atning boshqa turlaridan asosiy ish quroli va materiali so‘z ekanligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda abituriyentlarni oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish test sinovini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan Umumta’lim fanlaridan bilish darajasini baholash milliy test tizimi va Umumta’lim fanlaridan bilish darajasi to’g’risidagi sertifikat joriy etildi.

Mazkur qo‘llanma orqali akademik litsey o’quvchilari “Kecha va kunduz” romanidan tushadigan namunaviy savollarga tayyorgarlik ko’rishlari va O’zbek tili va adabiyot fanidan milliy sertifikat imtihonlarida tushadigan testlar na’munasidagi testlarni ishlash ko‘nikmasini oshirish uchun test na’munalari va savolnomalar bilan tanishib chiqishilari mumkin.

O‘quv qo‘llanmadagi testlarni ishlashda, zarur paytlarda darsliklar va izohli lug‘atlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu qo‘llanmani yaratishda so‘nggi yillarda nashr qilingan adabiyotlardan foydalanildi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmani maktab va akademik litseylarda adabiyot fanidan chuqurlashtirib o‘tiladigan yo‘nalish o‘quvchilar uchun **amaliy** darslarda foydalanishga tavsiya etaman.

Taqrizchi: 

J. Sayidolimov
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

«KECHA VA KUNDUZ» ROMANIDAN YOPIQ TESTLAR

1. «Kecha va kunduz» romanidagi epigraf uchun olingan maqolni toping.

_____

2. «Kecha va kunduz» romani nimaning tasviri bilan boshlanadi ? _____

3. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada muallif nimani nazarda tutmoqda ? *«Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat!»* _____**.**

4. «Kecha va kunduz» romanidan olingan holat kimga tegishli ? *«…qish ichi siqilib, zanglab chiqqan, ko‘ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi»*_____**.**

5. «Kecha va kunduz» romanidan olingan ta'rif kim haqida ? *«Halol-haromni ko‘p ham farq qilmayturgan bu odamning avrodda o‘tirish odatlari, hatto hammadan keyin qolib, machit shamlarini puflab chiqish rasmlari bo‘lardi»* _____**.**

6. «Kecha va kunduz» romanida dalaga chiqish orzusida bo'lgan Zebining yuragigi yoqadigan taklif bilan kelgan obraz ? _____ **.**

7. «Kecha va kunduz» romanida Saltanat Zebini o'zi bilan birga qayerga mehmondorchilikka olib bormoqchi bo'ladi ? _____**.**

8. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«Bu ona qizining saodatidan boshqa narsani bilmaydirgan onalardan edi. Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo‘lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi»* _____**.**

9. «Kecha va kunduz» romanida o'z xayollari bilan o'tirganlardan qaysi biri uchun Razzoq so'fi deyilganda *«qovog‘idan doim qor yog‘ib turgan sovuq bir so‘fini ko‘rinar edi»* _____**.**

10. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada kim ko'zda tutilmoqda ? *«U odam o‘z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, o‘z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun uning qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo‘lardi...»* _____**.**

11. «Kecha va kunduz» romanida *«O‘z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o‘z ko‘ngli qadar tund va xo‘mraygan bo‘lishini istagan»* obraz ?_____

12. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fining enagasi kim edi ?

_____**.**

13. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchaga mos tushadigan qahramon kim ? *«Kulish bilan yig‘lash orasida katta farq bor. Kulish bilan kulmasdan tekkina jiddiyat saqlab turish orasida ham anchagina masofa bor»* _____.

14. «Kecha va kunduz» romanida *«Bizning so‘fi mo‘min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi»* - deyilganda muallif nimani nazarda tutmoqda ?

_____ _____

_____.

15. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi o'z ayolini nima deb chaqirar edi ?

_____

16. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim nazarda tutilmoqda ? *«…jadidnamo bir hamshahrining deganidek, «ko‘rgazmaga qo‘yilaturgan antiqa maxluqlardan edi»*

_____.

17. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada gap kim haqida ? *«…Eshon bobo bo‘lmagan kunlari salqin xonaqoda juda maza qilib uxlaydi, deydilar. Ba’zida boshqa muridlar uni ko‘rpa-to‘shagi bilan hovuzga tashlar ekanlar»* _____.

18. «Kecha va kunduz» romanida

19. «Kecha va kunduz» romanida *«Kulmasdan chidab bo‘lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u*

kulish — kasal odamning kulishiday og‘ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg‘on xushomadlarday ko‘ngilga uruvchi bo‘lardi» - deyilganda muallif kimni nazarda tutmoqda ?

_____.

20. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi nimani *«…umrning tanobi!»* deb ta'riflagan ?

_____.

21. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi to'yga borsa, faqat u kishi bilan borar edi, u kishi kim edi ? _____.

22. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so‘fida *«…u yerga borish niyati kuchli. Har yili javraydi. Bir-ikki marta pasport ham oldi. Faqat, nima uchundir, oyog‘ini o‘z shahrining tuprog‘idan uza olmaydi»* - deyilganda muallif qayerni nazarda tutmoqda ?

_____.

23. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi: *«Daryo bo‘yidamizu chanqaymizmi? G‘alati ekansiz!»* - deganida kining uyidagi noz-ne'matlarni nazarda tutgan ?

_____.

24. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi nima tufayli o'zi tug'ilgan qishloqdan shahrga ko'chib keladi ?

_____.

25. «Kecha va kunduz» romanida *«Tashqari olamda, ya'ni o'z hovlisidan tashqarida uning doimiy va birdan-bir vazifasi: o'zidan ulug' va kuchlilar gapirsa — «hovva-hovva», demak, o'zidan past va kuchsizlar gapirsa — «yo'q, yo'q», degan ma'nida bosh chayqaydigan»* obraz ?

_____.

26. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fining ugay akasining ayoli kim edi ?

_____.

27. «Kecha va kunduz» romanida Qurbonbibi Razzoq so'figa Zebini qayerga jo'natayotganligini aytadi ? _____

28. «Kecha va kunduz» romanida Zebi Saltanatga *«Sanamasdan sakkiz demay turing hali!»* - deganda nimani nazarda tutgan ?

_____.

29. «Kecha va kunduz» romanida «*Qafasning darichasi ochildi!»* - deyilganda muallif nimani nazarda tutgan ?

_____.

30. «Kecha va kunduz» romanida aravakash yigitning ismi nima edi ?

_____.

31. «Kecha va kunduz» romanida aravada Saltining dugonalardan biri kim ham bor edi ?

_____.

32. «Kecha va kunduz» romanida qishloqqa borayotgan qizlarga ko'z-quloq qilib berilgan kampirning ismi nima edi ? _____.

33. «Kecha va kunduz» romanida qizlarga qorovullikka qo'yilgan bu qari kampirning qo'shilganiga qizlar xafa bo'lmagan, balki, aksincha, sevingan edilar, sababi ..?

_____.

34. «Kecha va kunduz» romanida *«...u o'zi maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og'iz ochib til qaldiratishni ravo ko'rmaydi. «Bu til, doim xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og'iz hamma vaqt xudoning zikriga ochiladi. Og'iz bilan til — bandaning jismida eng aziz va tabarruk a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo'lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo'q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidangina gaplashiladi. Vassalom!»* bu maslakka amal qilgan obraz ?

_____.

35. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning xayoli edi ? *«Ko‘kdagi oyga qarab, yerdagi oyni o‘ylar va boyagiday shirin-shirin kulimsirardi...»* _____.

36. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning xayoli…? *«U ham ko‘kdagi oyga qarab, yerdagi «toy»ni o‘ylar va yuzlari anorday qizarardi...»* _____.

37. «Kecha va kunduz» romanida kim yo‘qsul bir oilaning qizi bo'lib, otasi uning yoshligida o‘lib ketgan, onasi ikkovi birgina akaning boqimiga qarab qolgan edilar ? _____.

38. «Kecha va kunduz» romanida Enaxon va uning oilasini kim boqar edi ?

_____.

39. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«Hali eng o‘yinqaroq bola vaqtlarida ham butun qishloqning podasini boqib, oilaning ehtiyojlariga biror narsa qo‘shib turardi. Uning podachi bo‘lgan vaqtlarini hali ham qishloq odamlari havas bilan eslashadi. Ko‘cha-ko‘yda unga yo‘liqqanlar: — Podamizni yetim qilib qo‘yding-da! — deb boshlarini afsus bilan chayqab o‘tishadi»* _____.

40. «Kecha va kunduz» romanida kimning oilasi nazarda tutilmoqda ?*«Zindondagi bandini hech bir xayol surmaydi, deb kim aytadi? Gadoy podshoh bo‘lmoq istasa, yomonmi?»*

_____.

41. «Kecha va kunduz» romanida kim aytgan ? *«Oshqovoq somsa»! «Oshqovoq somsa»! Kambag‘allik qursin, ilohim! «Kambag‘al — xudoyimning suygan bandasi», deydilar, shumi suygan bandaning holi?!»* _____.

42. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«Uning o‘z bisotida bir shapaloqqina sholipoyasi bor; u ham marhum qaynatasidan tekkan, bor kuchini shunga sarf qiladi; hammadan burun ish boshlab, hammadan kech tugatadi va hammadan ko‘p urinadi»*

_____.

43. «Kecha va kunduz» romanida «Qora sochim» kuyiga kim qo'shiq aytayotgan edi ?

_____.

44. «Kecha va kunduz» romanida shahardan kelgan qizlarni o'z uyiga taklif qilgan mingboshining ayoli kim edi ? _____.

45. «Kecha va kunduz» romanida Enaxonlarnikiga kelgan mehmonlarni chaqirgan Sultonxonni o'z fikridan qaytargan obraz kim ? _____.

46. «Kecha va kunduz» romanida Umrinisabibining qizi kim edi ? _____

47. «Kecha va kunduz» romanida ashulachi qizning o‘zlarinikiga mehmon bo‘lib kelajagini eshitgandan beri mingboshining qaysi ayoli juda xursand edi ? _____ .

48. «Kecha va kunduz» romanida Sultonxonga qarshi Poshshaxon kim bilan ittifoq bilan tuzadi ? _____ .

49. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Men, o‘zim xohlab tekkanman. U vaqtda kuyovingiz yosh edi, muncha katta amaldor emasidi, nihoyati ellikboshi edi. Birinchi xotinidan bola bo‘lmagan ekan, ikki-uch yil umr qilishganlaridan keyin xotini o‘lib ketgan. Meni olgan vaqtida: «Sen ko‘z ochib ko‘rganimsan», derdi... Mening hech bir noliydigan yerim yo‘q edi. Toleimdan xafa emas edim»* _____.

50. «Kecha va kunduz» romanida kim aytgan? *«Men xohlab kelgan bo‘lsam ekan... Oyog‘imdan bog‘lab, bir cho‘riday olib keldilar. Tug‘ilganimga, yoshligimda kasal bo‘lib o‘lib ketmaganimga o‘kina-o‘kina kelganman»* _____.

51. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada Poshshaxon kimni nazarda tutmoqda ? *«...uning kelinbisiga rashkim keladi. Davlat asari yo‘q. Ro‘zg‘orlari zo‘rg‘a o‘tadi. Qo‘zichoqday ikki bolasi bor. Eri hamisha yonida... Kundosh alami yo‘q...»* _____.

52. «Kecha va kunduz» romanida Enaxonlarnikiga olib borgan aravakash yigit – O'lmasjonni holidan xabar olib turgan obraz kim edi ? _____.

53. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Bola degan ota-onani bir-biriga bog‘laydi... Fazilat tug‘ilgandan keyin men juda xursand edim. Xuddi o‘sha paytlarda onam o‘ldi. Otam hajga ketib, u yerda qoldi. Shuncha musibatlarni qiynalmasdan o‘tkazdim. Nimaga desangiz, uyimdan ko‘nglim to‘q edi...»* _____.

54. «Kecha va kunduz» romanida Zebi va uning dugonalarini Sultonxon «onasi kasal bo'lib qolganligi» uchun chaqira olmasligini kim orqali Enaxonga xabar beradi ?

_____.

55. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Buningiz amaldor bo‘lgandan keyin aynidi. Mingboshilik yomon hovliqtirdi. O‘z qishlog‘ini tashlab, bu yerga ko‘chdi. Bu katta hovlini sotib oldi. Mana bu katta imoratlarni soldirdi. Bog‘-rog‘ qildi, yer-suv ko‘paytirdi. Ko‘ngli boshqa savdolarga, o‘zga ko‘ylarga tushdi... Bola ham ko‘ziga ko‘rinmadi, xotin ham. Yoniga "haybarakallachilar" kirishdi. Xotin topadigan, maslahat beradiganlar ko‘payishdi»*

_____.

56. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«...belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo‘lmasa, hech kim uni amaldor demaydi»*

_____.

57. «Kecha va kunduz» romanida «san’at—san’at uchun» deb Akbarali mingboshining mo'yloviga qayg'uradigan obraz ?_____.

58. «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi parchadagi tagiga chizilgan so'zda kimning qaysi asari nazarda tutilmoqda ? *«…shahardagi to‘ralar, uning ikki chakkasida sangillab turgan u ingichka «kokil»larni «ikki osilganlar», deb piching qilardilar... Bu soddadil «sart» amaldori muningdek pichinglarga tushunmasa ham, piching qiluvchi to‘ralarning o‘zlari mashhur rus adibining «Yetti osilganlari»dan ham so‘zda, ham ishda juda yaxshi xabardor edilar...»*

_____

59. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi o‘zi yolg‘iz qolib «vijdoni» bilan qarshima-qarshi kelgan vaqtlarida, kimning ulug‘ xizmatlarini insof bilan esga olar, unga har to‘g‘rida minnatdor bo‘lganini o‘z «vijdoni» oldida iqror qilardi ? _____.

60. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi Miryoqub bilan ilk marta qayerda uchrashib, tanishib qoladi ? _____.

61. «Kecha va kunduz» romanida yurtning keksa odamlari o‘zaro so‘zlasharkan, bu mamlakatda hech bir xon va xonvachchaning muncha uzoq yurt so‘ramaganini so‘zlaydilar. Mallaxonlar, Xudoyorlar, Nasriddinbeklar yurt ustidan bahor bulutlari kabi kelib ketgan edilar. U mana, o‘n uch yildan beri shu masnadida o‘tiradi, davlati, obro‘si, nufuzi tobora oshsa oshadiki, kamaymaydi. U kim ? _____.

62. «Kecha va kunduz» romanida uni oddiy kiyimda ko‘rganlar yo oddiy bir qishloq boyi, yo Yettisuv bilan aloqasi bor qo‘ychi, yo bo‘lmasa, yaylov tomon bilan ish ko‘radigan tuyachi, deb o‘ylaydilar, lekin o'zi amaldor bo'lgan obraz kim ? _____

63. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining mingboshi lavozimiga saylanishida kimning xizmatlari katta edi ? _____

64. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqubga xalq nima deb laqab qo'ygan edi ?

_____.

65. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada gap kim haqida ketmoqda? *«U, aksari, piyoda yuradi, yurganda ham negadir shoshilib yuradi. «Assalomu alaykum!», deb dona-dona qilib salom bersangiz, shoshilganidan bo‘lsa kerak, «vass...», debgina qo‘yadi. Shu bilan birga, siz tomonga bo‘ynini qiyshaytirib, juda kichiklik bilan alik oladi, doim kulimsirab turgan ko‘zlarini siz tomonga qiyagina bir tashlab olib, yo‘rg‘alaganicha ketadi... Jinqarchaday hammavaqt va har qayda ko‘rinib qoladigan bu «asl mingboshi»ga salom bermoqdan bellaringiz toladi...»*

_____.

66. «Kecha va kunduz» romanida uning yer-suvi shu qadar ko‘pki, hisobini o‘zi ham bilmaydi. Lekin xudo bu sevgili quliga davlatni ikki qo‘llab uzatsa-da, farzand to‘g‘risida bir oz o‘ksitib qo‘ygan. U kim ? _____.

67. «Kecha va kunduz» romanida butun bu davlat, hukumat va ulug‘likning — bir og‘iz gapini silliq va yoqimli qilib gapirolmaydigan sodda va to‘ng amaldor kim edi ?

_____.

68. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining yakka-yu yagona qizining ismi nima edi ? _____.

69. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi qayerda bola so'rab hatto ko'ziga yosh oladi ? _____.

70. «Kecha va kunduz» romanida shaharda katta yo‘lning bo‘yiga — qo‘rg‘on tashqarisiga bir yangi paxta zavodi tushdi, zavodning kattakon bir paxta saroyi ham bor-ki, paxta terim vaqtida uch tarozi bilan paxta oladi. Ana o‘sha zavodning xo’jayinlardan biri kim edi ?

_____.

71. «Kecha va kunduz» romanida Noyib to'raga sartlarni gapirib turib, sartlarni kamsitadigan gaplarni gapirgan kasb egasi ? _____.

72. «Kecha va kunduz» romanida uchraydigan quyidagi ta'rif kim haqida ? *«Sen xuddi bir amerikalikka o‘xshaysan, Miryoqub! — dedi to‘ra. — Lekin ko‘nglingga og‘ir olma, chakki shu sartiya ichida tug‘ilib qolgansan!»* _____.

73. «Kecha va kunduz» romanida farzanddan va esdan mahrum, lekin yer-suv, pul va boshqa boylikka ko‘milgan obraz ? _____.

74. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqubning qaysi ishidan keyin odamlar uni «jinni bo‘libdi», deyishadi ?

_____ .

75. «Kecha va kunduz» romanida poezd yo‘li solinib bitmasdan turib, u cho‘lga necha tegirmonlik katta suv chiqdi. Avvalo, o‘z cho‘ntagining, qolaversa, otaxon mingboshining yordami bilan cho‘lning o‘rtasidan katta bir ariqni o‘tkazib qo‘ydi. Shundan keyin yersiz dehqonlarga chek bo‘lib bera boshladi. Ko‘p o‘tmay, u yerda bir qishloq paydo bo‘ldi, savol: bu qishloqqa nima deb nom berildi ? _____.

76. «Kecha va kunduz» romanida noyib to‘raning nomi nima edi ? _____

77. «Kecha va kunduz» romanida xalq noyib to'rani nima deb atar edi ?

_____ .

78. «Kecha va kunduz» romanida xudoning sevimli bandasi qorako‘z deb kimga ta'rif berilgan ?

_____

79. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining rus mirzasi kim edi ? _____

80. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining inoq mirshabi kim edi ?

_____

81. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining musulmon mirzasi kim edi ?

_____.

82. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Qora fuqaro bo‘lsa — ish boshqaydi, deydi, fuqaroning gapiga quloq solmayman... Ammo-lekin yurtning esli, obro‘yli odamlarini xafa qilmanglar»* _____ .

83. «Kecha va kunduz» romanida Qumariqdagi paynovlar masalasida Akbarali mingboshi ustidan kimlar ariza yozishgandi ? _____.

84. «Kecha va kunduz» romanida *«Ovozi Dovud payg‘ambarniki singari»* deb Zebi haqida kim gapirib beradi Akbarali mingboshiga ? _____.

85. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi kim haqida shunday deydi: *«Odamlarga ishonma, dedim-ku. Bu odamlar uni ham yaxshi qo‘shiqchi, deb yer-ko‘kka sig‘dirmay maqtaydilar. Ovozini eshitgandirsan?eshak hangrasa, undan a’lo...» ?* _____

86. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshini kim *«Obbo, betavfiq-ey!..»* deb aytar edi ? _____.

87. «Kecha va kunduz» romanida dasturxon solib xizmat qilishmoq uchun chiqqan Umrinisabibini bir narsadan gumonlanib uydan quvib chiqargan obraz ? _____

88. «Kecha va kunduz» romanida kim Zebining boshiga kelajak falokatni unga yoki uning yaqin o‘rtoqlariga qanday qilib aytishini bilmasdan, o‘z uyida parvona singari aylanardi ?

_____.

89. «Kecha va kunduz» romanida qaysi obraz odatda xotinlarga kalta gapirar, ular bilan ezilib o‘tirishni o‘z erkaklik sha’niga sig‘dirolmas edi... ? _____.

90. «Kecha va kunduz» romanida qizlar kimning boyligi haqida «Davlati boshidan qolsin!» deya qichqirar edilar ? _____.

91. «Kecha va kunduz» romanida Zebi ko'ngil qo'ygan yigitning ismi nima edi ?

_____.

92. «Kecha va kunduz» romanida Saltanatlar oilasining yon qo‘shnisigina emas, balki ona tomonidan bir qadar qarindoshi va bu xonadonning eng qadrdon bolasi kim edi ?

_____.

93. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi kimni betavfiq, benamoz deb aytadi ?

_____.

94. «Kecha va kunduz» romanida *«— Hunar bo‘lmay o‘lsin! — deya so‘zlandi. — Bolam bechoraning yuzini kun yorug‘ida ko‘rolmayman! Ishlab-ishlab topgani nima? Topib keltirgani nima? Ro‘zg‘orga yuq bo‘lmaydi... Qaymog‘ini karvonboshi yalaydi, albatta. Bu sho‘rliklar yugurgani-yugurgan, qatnagani-qatnagan, karvonboshi — og‘zining yeli bilan topadi... Shu ham insofmi?»* kampir tilidan aytilgan gapda qaysi hunar nazarda tutilmoqda ?

_____.

95. «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi parcha qayerdan olingan *«...bo‘lusining hokimi mutloqi o‘lan Akbarali mingboshi butun bo‘lusning yagona usuli jadida maktabini bog‘latib, muallimini haq bermasdan haydatdirdi... Uch oygina davom eta olmish bu maktab millat bolalarina ozda bo‘lsa oq-qorani tanitdirmoqqa muvaffaq bo‘lmish edi. Mingboshining o‘zi esa har sana bir evlanmoqdan, xotin yangilamoqdan bo‘shalmaydur... Uch xotini ustiga yana to‘rtinchisini, hatto besh-olti-ettinchisini... ham oluvga qarshi emas» ?* _____.

96. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshiga haftada ikki marta zo‘rg‘a chiqariladigan gazetani olib kelib boshi baloga qolgan obraz ? _____.

97. «Kecha va kunduz» romanida O‘zi uchun Miryoqubdan boshqa chin ko‘ngiddan kuyadigan odam yo‘qligini yaxshi bilgan obraz ? _____

98. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub kimlar haqida shunday deydi? *«Ular bilan yarim poshshoga o‘xshagan ulug‘ odamlar olishmasa, uncha-muncha odamlar bekor kelmaydi. Ularning hammasi mahmadona keladi...»* _____.

99. «Kecha va kunduz» romanida yurt orasida yangilikni rasm qilarmishlar... Yangi o‘qish, yangi maktab, yangi urf-odat, yangi kiyim, har narsa yangi... bular kimlar ? _____ .

100. «Kecha va kunduz» romanida jadidlar qaysi mingboshini osmonga ko‘tarib yozishib chiqishadi ? _____.

101. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«...hovlisida muallim saqlab, o‘g‘illarini o‘qitadi. Jadid maktabiga pul bilan qarashadi. Odamlarning bolalarini yubortiradi. O‘zi jadid gazeti o‘qiydi...»* _____ .

102. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Tishimni-tishimga qo‘yadigan hezlardan bo‘lsam, ma, ol, bu shop-shaloplarni! — dedi u baland ovoz bilan. — Menga pasport olib ber, Makkatulloga jo‘nayin!»* _____.

103. «Kecha va kunduz» romanida jadidlarning maktabini yopishga Akbarali mingboshiga kim buyruq bergan edi ? _____.

104. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada tushirib qoldirilgan so'z qaysi ?

«Katta ariqdan xatlayolmagan vaqtingizda … keladi...

— Bilasiz-mi?

— Bilaman.

— Yiqilgan polvon ham achchig‘ini … yengadi, — dedi yana Miryoqub»

_____.

105. «Kecha va kunduz» romanida kim aytgan ? *«Pul degan narsa topilib ketadi, obro‘ topilmaydi, obro‘!»* _____.

106. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada kim nazarda tutilmoqda ? *«…o‘zi ajab bir xushtahrir odam! Yozishini ko‘ring: suvday ravon! Hamma uqadi, hamma anglaydi!»*

_____.

107. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi birovdan alamini olmoqchi bo'lsa, kimga kaltaklatar edi ? _____.

108. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada kimning laqabi haqida gap ketmoqda ? *«Unga boshqa bir munosib laqab topish lozim kelardikim, unday laqabni endi bu qishloq odamlari topolmasdilar, buning uchun Amir Navoiy yoki Mavlono Jomiy, yo bo‘lmasa, Shomashrabning tirilib kelishi darkor edi»* _____.

109. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada Akbarali mingboshi kimni nazarda tutmoqda ? *«Nimasini aytasan. U kelsa, uchovidan ham kechmoqchiman. Uchoviga qayrilib qaramay, deyman... bor-yo‘g‘imni o‘shanga beray, deyman...»* _____.

110. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi *«Toza avliyo ekan-ku»* deganda kimni nazarda tutmoqda ? _____.

111. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi kimni *«yo‘lvorsim, yo‘lvorsim!»* deb kimni aytadi ? _____.

112. «Kecha va kunduz» romanidagi quyidagi so'zlarda muallif kimni nazarda tutmoqda ? *«Bir qarasangiz, «Hikmat»dan baytlar o‘qib, ho‘ng-ho‘ng yig‘laydi... Dam bo‘lsa, suhbat hofizlari singari asta-asta xirgoyi qiladi»* _____.

113. «Kecha va kunduz» romanida Eshon Razzoq so'fini chaqirtirish uchun kimni elchi qilib jo'natadi ? _____.

114. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«Qovog‘idan doim qor yog‘adi, vajohati doim qish, doim izg‘irin... Yo bir maslahatni aytib bo‘ladi, yo ro‘zg‘or ishini. Koshki, boshqa mo‘min-musulmonday bir kasb qilib, besh-o‘n tanga topib kelsa... Yo‘q, yo‘q! O‘zi to‘y-mo‘yga borib, qornini to‘yg‘azib kelsa bo‘ldi, boshqa bilan ishi yo‘q!»* _____.

115. «Kecha va kunduz» romanida har yil bir qur hajga bormoqchi bo'ladigan, yonida bir chakasi yo‘q, har yil bir qur «boshput» oladigan, chinakam jo‘naydigan kishiday, bor puliga un olib, yog‘ olib — kulchalar yoptiradigan, taraddud bitgandan keyin, hajga borish qolib keta beradigan obraz ? _____.

116. «Kecha va kunduz» romanida qaysi voqeadan keyin Zebining ko‘ngil shishasiga bir tosh kelib tekkan kabi bo‘ldi... ?

_____

117. «Kecha va kunduz» romanida *«Echkiga o‘lim, qassobga yog‘!»* deb kim aytgan ? _____.

118. «Kecha va kunduz» romanida qaysar va o'jar Razzoq so'fini qizini mingboshiga berishni ko'ndirib bergan obraz ? _____.

119. «Kecha va kunduz» romanida *«Sen-bizning ming yil ibodati-mizu ularning bir kunlik xizmatlari — bab-barobar! Mingboshi qancha mo‘min-musulmonlarning hojatini chiqaradi, qancha alamzadaning dodiga yetadi! Qancha o‘g‘ri, kisavur, qaroqchining jazosini beradi! Qancha nohaq bo‘lgan ishlarni haqqa qaror topqizadi. Ibodat ham — ibodat, mo‘min-musulmonga xizmat ham — ibodat! Balki bu keyingisi — a’lo!»* - deb mingboshini maqtagan obraz ? _____.

120. «Kecha va kunduz» romanida *«Zebini tushirib kelish uchun shaharga borgan xotinlar, ularning o‘z tillari bilan aytsak, «qudalar», boshlarida Poshshaxonga o‘xshagan eslik va ayyor bir juvon turganiga qaramasdan, negadir kichkina mittini nazardan qochirdilar»* deyilganda *kichkina mitti* kim ? _____.

121. «Kecha va kunduz» romanida Zebi bilan birga bo‘lishib, farishta qiyofasidagi shayton kabi, uning ichiga kirib, pistoki ta’zimlar va serxushomad gaplar bilan uning ko‘nglini ovlab, mingboshi dodhoga uni «isittishgan» qizlarni kim yollagan edi ? _____.

122. «Kecha va kunduz» romanida *«Kichkina mitti, xon xo‘jani yiqitdi»* kimga nisbatan ishatilgan ? _____.

123. «Kecha va kunduz» romanida *«...u kishi mulla bo‘lsa, zabardast bo‘lsa, xudoning buyrug‘ini tushunsa, shariatni, tariqatni suvday bilsa...»* - deganda Razzoq so'fini kimni nazarda tutgan edi ? _____.

124. «Kecha va kunduz» romanida Zebining qadami tekkandan beri kim butunlay nest-nobud bo‘ldi. Kechagi botgan quyoshday... unutildi! ? _____.

125. «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi parchada muallim kimni nazarda tutmoqda ? *«Poshsha afsunchining bu o‘rgatma iloni bir marta nishini botirib olmasa, bo‘ladimi?»* _____.

126. «Kecha va kunduz» romanida kichkina mittining katta ishlari haqida Umrinsabibi Sultonxonga aytib berdi. O'sha kichkina mittining ismini yozing. _____.

127. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchani Umrinsabibi kimdan eshitgan edi ? *«…oq poshsho yetti qiron bilan urishayotgan emish... Hamma fuqarosi qirilib tamom bo‘lipti... Yurtida odam qolmapti. Bugun emas, ertaga mingboshilarning hammasini urushga olib ketarmish...»* _____.

128. «Kecha va kunduz» romanida *«Yurt ham, samovarday asta-asta qaynab yotibdi. Bir toshadi bu! Yomon toshadi lekin. Odamlarning yuziga qarasam, o‘ris-musulmon hammasining ko‘zi bejo... «yutaman», deydi. Qimmatchilik borgan sari avj olyapti. Shunday oq poshshoning xazinasi qoqlanib qoldimikin? Oq poshsho mening gapimga kirsa, yurt bersa berardiki, tezroq yarash qilib odamlarni tinchitardi. Allaqaylardagi yurtlarni deb boshini qazoga tutadimi kishi...»* - deb kim aytgan ? _____.

129. «Kecha va kunduz» romanida mingboshi — tuya, burniga ip o‘tkazilgan, ipning uchi — sarbonda, ya’ni tuyachida, sarbonning nomi… ?_____.

130. «Kecha va kunduz» romanida ko‘cha *supurib yurib, olti so‘m oylik oladigan qorovul, u doimo xursand! Vaqti chog‘! Qachon ko‘rsangiz, ashula aytadi. Mening oqsoch xotinlarim bilan o‘ynashadi. Topganini o‘shalarga sarf qiladi. O‘zi doim och...»* bu obraz kim ? _____.

131. «Kecha va kunduz» romanida *«…kechaning bitta fazilati, qorong‘ilikning bir yaxshiligi shu!»* - deganda muallif nimani nazarda tutmoqda ? _____.

132. «Kecha va kunduz» romanida Mityoqub Qrimga kim bormoqchi bo'ladi ? _____.

133. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub Mariyaga nega tuyaning rasmini ko'rsatadi ? _____.

134. «Kecha va kunduz» romanida XX asr boshlarida axloqiy buzuqlik tashviq etilgan asarlari bilan mashhur bo‘lgan rus yozuvchisi kim edi ? _____.

135. «Kecha va kunduz» romanida «Ming bir kecha»dagi zolim hukmdorlarga o‘xshagan bu «mutaasib musulmon» kim edi ? _____.

136. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada kim nazarda tutilmoqda ? *«Bu ham Akbaraliga o‘xshagan minglarcha itlarning biri! Faqat bu bilan Akbarali mingboshi o‘rtasidagi farq shuki, bu o‘zini undan yuqori oladi. Shu yuqorilik hissi, shu g‘urur — uning o‘zidan itlikni to‘sib turadi, o‘ziga ko‘rsatmaydi, uning o‘zini aldaydi...»* _____.

137. «Kecha va kunduz» romanida Umarxon zamonida qozi bo‘lib o‘tgan qaysi shoining o'z qo'li bilan yozgan baytini topib Noyib to'raga Miryoqub olib kelib beradi ?

_____.

138. «Kecha va kunduz» romanida kim yerli xalqning til va adabiyotini juda yaxshi biladigan ma’murlardan edi ? _____.

139. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub kimning yordamida Noyib to'raga uch-to'rtta qimmatbaho qo'llanmalar keltirib bergan edi ? _____.

140. «Kecha va kunduz» romanida *«Dunyoda hamma odam bolalari bizning ikkimizdek bo‘lsalar, dunyo jannat bo‘lardi»*, deb Noyib to'ra kimga aytadi ? _____.

141. «Kecha va kunduz» romanida shoir Mavlono Adoning haqiqiy ismini Noyib to'ra nima deb aytadi ? _____.

142. «Kecha va kunduz» romanida *«Biz, sartiya xalqi, xudodan keyin oq podshoga ishonamiz»* - deb kim aytadi ? _____.

143. «Kecha va kunduz» romanida podshoning devordagi suratini, so‘ngra o‘zining yelkasidagi pogonini ko‘rsatib Noyib to'ra Miryoqubga nimani tushuntirmoqda ? _____.

144. «Kecha va kunduz» romanida Noyib to‘raning oshpazi kim edi ? _____

145. «Kecha va kunduz» romanida *«Shu choqqacha taxtalik polda yurishni bilmaysan. Ho‘kiz!»* deb Noyib to'ra kimga aytar edi ? _____.

146. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Allakimdan allanimalarni so‘ragim, bilgim, o‘rgangim keladi. Bir pirni topib — tariqat so‘rasammi? Bir zakonchini topib — zakon so‘rasammi? Yo bir muallimni topib — masala so‘rasammi? Hayronman...»* _____.

147. «Kecha va kunduz» romanida Noyib to'ra imperiyani nimaga o'xshatadi ? _____.

148. «Kecha va kunduz» romanida noyib to‘ra mahkamasining kotibi kim edi ?

_____ .

149. «Kecha va kunduz» romanida Mariya Ostromova yangi pasportida qaysi nom bilan atalgan ?

_____

150. «Kecha va kunduz» romanida *«Bilasanmi? Ana, pul degan narsa o‘shanda! Bir quchoq!»* - deyilganda kim nazarda tutilmoqda ? _____

151. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqubni «aziat» deb kim aytar edi ?

_____.

152. «Kecha va kunduz» romanida Noyib to'raning ayoli kim edi ? _____

153. «Kecha va kunduz» romanida mahalliy xalq Noyib to'rani kim deb chaqirar edilar ? _____.

154. «Kecha va kunduz» romanida mahalliy xalqni yuvosh, qo‘yday xalq, qancha jabr ko‘rsa, qiynalsa ham «xudo» deb tura beradi, ularning shu dindorligini, ayniqsa, yaxshi ko‘radigan obraz ? _____.

155. «Kecha va kunduz» romanida qaysi obrazning ichida ikkita odam: biri – tergovchi, biri – gunohkor odam paydo bo'ladi ? _____.

156. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqubning otaxoni, valine'mati bo'lgan obraz ? _____.

157. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«O‘rislar senga o‘xshaganlarni kitoblarda maqtaydilar. Sening hamma hunaring, yeng ichida ish ko‘rib, shuncha pul topishingda. Sen zavod parraklarini aylantirayotgan kishisan. Faqat bir joyga bir chaqa soliq to‘lamaysan. Shunday bo‘lgandan keyin, senday ulug‘ bir odam bir ish*ni *chuqur o‘ylamasdan qilmaydi»* _____.

158. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub Akbarali mingboshi o'lganidan keyin bor merosini qo'lga kiritish uchun kim bilan til biriktirgan edi ? _____.

159. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub tilidan aytilgan parchada kimdagi o'zgarishlarni tilga olmoqda ? *«Xotin kishining ko‘nglini xudodan boshqa hech kim bilmaydi. Birdaniga bunday o‘zgargan bo‘lsa, tagida bir gap bor. Ishqilib bundan qo‘rqqulik!..»* _____.

160. «Kecha va kunduz» romanida Hakimjon mingboshining xotinlari o'rtasidagi o'zaro gaplarni kim orqali eshitib turar edi ? _____.

161. «Kecha va kunduz» romanida Berlinda sevimli akasi bo'lgan obraz ? _____.

162. «Kecha va kunduz» romanida Mariya tomonidan Miryoqubga berilgan nom ? _____.

163. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub tomonidan Mariyaga berilgan nom ? _____.

164. «Kecha va kunduz» romanida *«…handaqning ichida turgan vaqtingda odam uning havosiga ko‘nasan. Faqat bir marta u yerdan chiqilgach, ochiq va sof havoga chiqilgach, tog‘ havosi kabi toza havoli tepalarga chiqilgach... qaytib xandaqqa tushib bo‘ladimi?..»* - deb kim aytgan ? _____.

165. «Kecha va kunduz» romanida Mariya va Miryoqub borayotgan poyezdda olifta toshkentlik jadid savdogarning ismi nima edi ? _____.

166. «Kecha va kunduz» romanida *«Millat bolalarining baxti haqiqiy, madaniy onalar qo‘lida bo‘lmasa, bizning oqibatimiz yomon! Siz undan ko‘p narsa ola bilasiz. Singillaringiz, qizlaringizni shularga o‘xshab tarbiya qilsangiz, shundagina vazifangizni bajargan bo‘lasiz!»* - deb kim aytgan ? _____.

167. «Kecha va kunduz» romanida jadid Miryoqubga qaysi gazetani o'qishga da'vat etadi ? _____

168. «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi da'vat qaysi gazetada bor va uning rahbari kim ? *«Tilda, fikrda, ishda birlik!» deydi, ya’ni biz musulmonlar, turk xalqlari, bir til bilan gapiraylik, bir fikrda bo‘laylik, bir ish qilaylik»*

_____.

169. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Bizning tilimizni biladigan amaldor oshnangiz to‘g‘risida kelsak... Bizning mamlakatimizga rus hukumati bir «mustamlaka» deb qaraydi, ya’ni mamlakatlarning o‘gayi singari... Shu uchun bu yerga yaxshi amaldorni yubormaydi. Bitta-yarimtasi adashib kelib qolmasa... Ulardan bizga do‘st yo‘q... Bizning do‘stimiz — o‘zimiz. Bizning do‘stimiz — millat! Ular millat dushmanlari... Biz ularga dushman! Shuni unutmangiz!»* _____.

170. «Kecha va kunduz» romanida millionchi, tilla konlari bor bo'lgan «Vaqt» gazetasining mutasaddisi kim edi ? _____.

171. «Kecha va kunduz» romanida *«Ish bilasiz ekan. Davlatingiz bor ekan. Faqat birgina aybingiz shuki, zamon ahvolidan xabardor emassiz. Gazet o‘kimaysiz. Shu zamonda mundan yomon gunoh bormi? Qanday yaxshi gazetlar bor. Orenburgda, Qozonda, Ufada, Bokuda, Astraxanda, ayniqsa Moskvada, urush bitgandan keyin chetdan oldirib o‘qing!»* - deb aytib Miryoqubning dunyoqarashini o'zgartirib yuborgan obraz kim ? _____.

172. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada kimning tilidan aytilgan ? *«Mana, men; Finlandiyada magazinim bor, Peterburgda magazinim bor: har yil yarmarkaga borib ish qilaman. Frantsiyada Lion, Germaniyada Hamburg shaharlariga boraman. Teri, mo‘yna, mahalliy sanoat mollarini o‘tkazaman. Dunyoning pulini topaman. Faqat mening o‘g‘lim — uloqchi ot minib, poygalarda yurmaydi, mendan pul olib, qimor o‘ynamaydi, mening topganimni besoqolga, fohishaga bermaydi. O‘qiydi, bilim oladi, odam bo‘ladi, madaniyat kasb etadi. Bir ukam — Finlandiyada Xelsingfors gimnaziyasining 5-sinfida. Bir ukam Ufada mashhur Oliya madrasasida. Akamning bir o‘g‘li — Toshkent real maktabida. O‘z o‘g‘lim hali kichik bola, Finlandiyada, maxsus muallim solib berganman, o‘qiydi...»* _____.

173. «Kecha va kunduz» romanida *«Jadid — kofirning ashaddiysi»* deb kim aytgan ? _____.

174. «Kecha va kunduz» romanida poyezdagi jadid qayerga ketayotgan edi ? _____.

175. «Kecha va kunduz» romanida jadid kimni shunday deb maqtaydi: *«Ana, haqiqiy millat xodimi o‘sha! Hamma mingboshi va amaldorlarimiz o‘sha odamga o‘xshasa, millat tez taraqqiy qilardi» ?* _____.

176. «Kecha va kunduz» romanida shahardagi katta boylar bo‘lsa, kimlar to‘g‘risida «tirranchalar», «haromilar» demasa, gapirolmasdi ? _____.

177. «Kecha va kunduz» romanida jadid ilmlari o‘qitiladigan *Husayiniya* madrasasini kim qurdirgan ? _____

178. «Kecha va kunduz» romanida jadid kimni Millat yo‘liga bir chaqa bermaydigan johil boy deb aytadi ? _____.

179. «Kecha va kunduz» romanida jadid tilidan olingan quyidagi parcha kim nazarda tutilmoqda ? *«Qizlarini yangicha o‘qitish uchun Ufadan maxsus muallima oldirgan. Hozir o‘sha muallimaga o‘z uyida yangicha qizlar maktabi ochib bermoqchi bo‘libdi. Yaqinda yuqoriga ariza berib, «usuli jadid» maktabi ochishga ruxsat oldi. Toshkentdan biz muallim jo‘natdik. U odam millatning otasi. Hammamizning otamiz! Ko‘rsangiz, salom ayting. Hamma jadidning orzusi o‘sha odamni bir ko‘rish!»* _____.

180. «Kecha va kunduz» romanida jadid tilidan olingan quyidagi parcha kim haqida ? *«Ilgari jadidlar orasida ham haligi aytganingizdek, sotsialist bo‘lib yurganlar bor edi. Chunonchi, tatarlardan …. U bir necha yil burun boylarga qarab ayyohannos tortardi. Hozir Moskvada boylardan yordam olib, gazet chiqaradi. Xolisanlillo millatga xizmat qiladi... Moskvaga bor-sangiz, o‘sha gazetni topib o‘qing... «So‘z» gazeti... juda yaxshi gazet!* _____

181. «Kecha va kunduz» romanida *«Ertaning g‘amini eshak yeydi»* - deb ikki marta aytgan obraz ? _____.

182. «Kecha va kunduz» romanida bolalarining saodati uchun o'z ayolidan voz kechmoqchi bo'lgan obraz ? _____.

183. «Kecha va kunduz» romanida Moskvada no'g'ay domlalarini nima deb chaqirishar edi ? _____.

184. «Kecha va kunduz» romanida nigoh o'qilganidan keyin Maryamning ismini nima deb qo'yishadi ? _____

185. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub kim haqida shunday degan: *«U gapirganda — o‘z gapiga o‘zi ham ishonolmaganday gapiradi... Hech bir ta’siri yo‘q!»* ? _____.

186. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada ko'p nuqtalar o'rniga mos qahramonni topib yozing. *«Ayb **…**ning o‘zida edi. Tevarak-atrofdan ko‘p sovchi chiqdi bu qizga. Hammasini qaytardi. Ba’zilariga qiz o‘zi ham roziydi, onasi ham yo‘q demasdi. «Yo‘q, — dedi …, — ikki qizimni qishloqiga berdim, bittasini shaharlikka beraman. Juda loyiq, qobil joyini topib, badavlat, obro‘lik odamga beraman!»* _____

187. «Kecha va kunduz» romanida Hakimjon Miryoqubga kim haqida shunday degandi: *«Endi, birdaniga juda boshqacha bo‘lib kelibdi. Darvozadan kulib, quvnab kirib kelgan emish. Hamma hayron»?* _____.

188. «Kecha va kunduz» romanida *«Shuncha yil yaxshimi, yomonmi — xizmatlarini qildi. Endi yangi kanizaklari bor. Munisiga ruxsat bersalar. Yoshi o‘tmay turib, bir joyga bersak»* - deb Sadr cho'loq vakil qilib mingboshining oldiga kimni jo'natadi ? _____.

189. «Kecha va kunduz» romanida ertalabdan kechgacha arizachi kutib qolgan mingboshining ayoli kim edi ? _____.

190. «Kecha va kunduz» romanida shomga yaqin kim ariza bilan mingboshining uyiga keladi ? _____.

191. «Kecha va kunduz» romanida Sultonxonim tomonidan yozilgan xatdan olingan to'rtlik qaysi shoir qalamiga mansub ?

Fatonatlikey yaxshilar sarvari,
Basharmusen yo maloik, yo pari,
Jafo qilsang, ko‘p oshiqning daftari,
Ne gunohim, menga tanho aylading. _____.

192. «Kecha va kunduz» romanida Sultonxonim kimga xat yozadi ? _____.

193. «Kecha va kunduz» romanida *«Yurtning vajohati buzuq, taqsir. Gap ko‘tarmay qoldi. Asad oyida ro‘za tutgan bangiga o‘xshaydi, taqsir... Endi, yurt — ko‘pchilik, ehtiyot kerak, deymiz-da»* - deb Akbarali mingboshiga kim aytgan ? _____.

194. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining uyiga mehmon bo'lib kelgan qishloq qarz shirkatlarining inspektori kim edi ? _____.

195. «Kecha va kunduz» romanida O‘z mingboshisining ishlariga qarab hamma mingboshilar va umuman shu zamon hokimiyati to‘g‘risida ko‘p ham yaxshi fikrda bo‘lmagan obraz ?

_____

196. «Kecha va kunduz» romanida «U agar haq yo‘lni topsa, bormi, noyob odam bo‘ladi» - deganda Hakimjon kimni nazarda tutgan ? _____.

197. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«Lekin, bachchag‘ar kofir, bir narsani bilmasdan aytmaydi. Nimaga desangiz, u «zakon» kitobini ko‘p o‘qigan, hamma vaqt o‘risning ichida qaynaydi, o‘ris tilini suv qilib ichib yuborgan...»*_____.

198. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimga tegishli ? *«...Bular barchasi ilmsizlik kasofati, Hakimjon! Nodonlik mevasi. Bu yo‘g‘on sallali, bo‘sh kallali hayvonlar, Buxoroi sharifni spekulyatsiya ilib, islom millatini zaharlovchi mikroblar bizni shu holga keltirdilar... Eh... eh... eh!..»* _____.

199. «Kecha va kunduz» romanida har bir katta sallalik domlani Hakimjon kimga o'xshatadi ? _____.

200. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Kattalarimiz o‘rus-da, axir! O‘ris bo‘lganidan keyin musulmonga yon bosmaydi. Bu rost!»* _____.

201. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning xayoli ? *«Tunov kun, shaharga tushganimda, mudarris domlaning o‘g‘illariga qattiqroq tegishib qo‘yuvdim... O‘zi ham, bachchag‘ar, ipak sallani chambarak qilib o‘rab, yomon ko‘zga ilashadigan bo‘pti-da! Ustimdan arz qilgan bo‘lsa-ya, haromibachcha?»*_____.

202. «Kecha va kunduz» romanida nog‘oy domladan «Millatingiz nima?» deb kim so‘raydi ? _____.

203. «Kecha va kunduz» romanida hasti Ibrohim Halillullo to‘g‘risida kim quyidagi baytni yozgan ?

Halillullo uchun yondirdilar nor,

Qadam qo‘ymay o‘shal o‘t bo‘ldi gulzor. _____.

204. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ? *«Bizdek fuqaro yolg‘on aytganda, ishonmagan odam bir-ikki marta zo‘raki yo‘talib qo‘ysin. Amaldor bilan domla-imom yo obro‘yi katta boylar yolg‘on aytsa, ishonmagan odam kavishini qo‘lga olib tursin: «O‘g‘ri ketdi» bo‘lmay iloji yo‘q!»* _____.

205. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi nazarda tutilgan quyidagi parcha kimning tilidan aytilgan ? «*Zamonaning oxir bo‘lgani shu-da, taqsir. Benamoz rais bo‘lib, namozdan qolganni tergaydi!»* _____.

206. «Kecha va kunduz» romanida *«Tuyaga qanot bersa, qaysi imorat sog‘ qoladi?»* - deya butun jamoat kuldirgan ? _____.

207. «Kecha va kunduz» romanida masjidda jamoat odamlari oldida Akbarali mingboshini yomonlagan obrazlar ? _____.

208. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida? *«Savdogarlar bilan liq to‘la qul bozorida sotiladigan kanizak hech bir tadbir bilan sotilishdan o‘zini qutqarolmaydi*» _____.

209. «Kecha va kunduz» romanida *«Qizim, — dedi, — meni munaqa sharmanda qiladigan bo‘lsang, ilohim, bo‘yning tagingda qolsin... Murodingga yetmagin...»* - deb o'z qiziga aytgan obraz ? _____.

210. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada tagiga chizilgan so'zda kim nazarda tutilgan ? *«Yashash uchun qurash borayotgan bo‘lsa, odatda kuch bilan yengolmagan odamlar hiyla bilan yengadilar: bu juda tabiiy narsa. Ayniqsa, xotinni quldan battar xo‘rlovchi muhitda xotin chor-nochor hiylaning ustozi bo‘ladi. Xotinning ikki qo‘liga kishan solib, ko‘cha darvozasini tashqaridan qulflab, do‘koniga ketadigan savdogar hammadan ortiq ahmoq bo‘lganini anglamaydi...»* _____.

211. «Kecha va kunduz» romanida maschitdagi voqeani ot chopib kelib mingboshiga xabar bergan va uning yonida ot yo‘rtdirib borayotgan odam to‘pponcha voqeasidan so‘ng maschitdan qochgan ikki ellikboshining biri kim edi ? _____.

212. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi kim haqida o'ylab shunday deydi: *«Bir og‘iz gap bilan ma’qul maslahatni topib berardi: «Qo‘y ham butun, bo‘ri ham to‘q» bo‘lardi*»? _____.

213. «Kecha va kunduz» romanida Mingboshi qachon o‘zining Miryoqubsiz hech narsaga yaramaganini umrida birinchi marta o‘z-o‘ziga iqror bo'ladi ? _____ _____.

214. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub yo'qligida Akbarali mingboshi kimdan maslahat so'raydi ? _____.

215. «Kecha va kunduz» romanida mingboshining xonadonida yigitlarning namozxoni kim edi ? _____.

216. «Kecha va kunduz» romanida *«Janobi hurmatlik otaxonimiz, qiblagohimiz, millatning otasi va taraqqiyparvar mulla Akbarali afandi mingboshi dodho hazratlariga ko‘p-ko‘p salomdan so‘ngra andog‘ ma’lum va ravshan bo‘lgaykim... v.h.»* - deb kim Akbarali mingboshiga xat yozadi ? _____.

217. «Kecha va kunduz» romanida Miryoqub Akbarali mingboshiga yozgan maktubida, agar birorta mushkul ishingiz tushsa, kim hal qilib beradi deb yozadi ? _____.

218. «Kecha va kunduz» romanida Umaraliboyni kaltaklaganlarning boshlig‘i kim edi ? _____.

219. «Kecha va kunduz» romanida to'pponcha bilan qo'rqitgan Umarliboyning farzandi kim edi ? _____.

220. «Kecha va kunduz» romanida *«Ular qo‘l ko‘targandan keyin qo‘l ko‘tarsak, kech qolamiz, og‘aynilar, orqalaridan quvib borib, birdaniga soldirmasak bo‘lmaydi!»* - deb kim aytadi ? _____.

221. «Kecha va kunduz» romanida mingboshi xotinlari orasida eng jonli va eng esligi bo‘lgan bu juvon kim edi ? _____.

222. «Kecha va kunduz» romanida mingboshinikida Sultonxonni o'rnini kim egallaydi ? _____.

223. «Kecha va kunduz» romanida Mingboshi kimning uyiga butunlay kapa tikib oladi ? _____

224. «Kecha va kunduz» romanida mingboshi kim haqida: *«Shuni qo‘lga keltirsam, bor-yo‘g‘imni tutaman. Bor-yo‘g‘im shuniki bo‘ladi. Bittagina bola tug‘ib bersa, merosxo‘rim bo‘ladi. Boshqalarga hech narsa yo‘q!»* shunday degan ? _____.

225. «Kecha va kunduz» romanida mingboshi Zebi haqida kimga shunday degan? *«Men endi topdim baxtimni. Hammayog‘im shuniki. Boshqalarga besh-to‘rt tanob yerni tirikligimda o‘tkazib berib, qolgan davlatimni batamom shunga qoldiraman».* _____.

226. «Kecha va kunduz» romanida *«Dunyoda o‘z oyog‘iga o‘zi bolta chopadigan ahmoq ham bo‘ladimi?»* - deganda Sultonxon nimani nazarda tutgan edi ? _____.

227. «Kecha va kunduz» romanida nima Poshshaxonnini sil qiladi, sil! ? _____.

228. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«Nima bo‘ldi bu juvonga? Ertadan-kechgacha kundoshlari bilan o‘ynashadi, gapiradi, ashula qiladi, kuladi, kuldiradi, tegishadi, hazil qiladi, qitiqlaydi, qochadi, quvlaydi, quvlashadi. Qor yoqqanidan beri qishloqning yarim xotin-qizlari bilan qor otishib chiqdi... Uchta bilan «qor xati» o‘ynab yutdi... Nima balo bo‘ldi bu juvonga!»* _____.

229. «Kecha va kunduz» romanida *«Endi bir o‘q bilan ikki qushni ag‘darish kerak»* - degan qarorga kim keladi ? _____.

230. «Kecha va kunduz» romanida Poshshaxon kuchala qaynatib o'z rejasini amalga oshirmoqchi bo'lgan vaqtda qolgan kundoshlari qayerda edi ? _____
.

231. «Kecha va kunduz» romanida kim aytgan ? *«Soddasan, Akbarali. Podsholik hamma vaqt yurtning obro‘ylik odamlarini himoya qiladi. Obro‘y davlat bilan topiladi, muni bilasan. Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o‘zboshimcha harakatlariga yo‘l qo‘yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo‘l yuvishimiz kerak bo‘ladi. Sen xomsan siyosatga...»* _____.

232. «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi «xunuk» xabar nima ? *«...bu xunuk gapni haligi ikki boy bilan Abdisamat kaptarlarning qanotiga ilib, shamolning qo‘ltig‘iga qistirib, yomg‘irning tomchisiga joylab, bulutning qo‘yniga solib uchiradi; har bir uchgan qarg‘a shuni aytib qag‘illaydi, shu bilan ikki kun ichida u shumli xabar yer yuzini aylanib, Makkatillogacha yetib boradi»* _____.

233. «Kecha va kunduz» romanida Zunnun kimga «ota» deb murojaat qilar edi ?
_____.

234. «Kecha va kunduz» romanida «*...yotib qolguncha otib qolaylik»* deb kim aytgan edi ?
_____.

235. «Kecha va kunduz» romanida o‘q otib mo‘ljaliga tegizolmagan obraz kim edi ?
_____.

236. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada muallif kimni nazarda tutmoqda ? *«Kim biladi, mingboshining o‘limiga yig‘laydimi u juvon, yo Miryoqubning bevafolig‘iga, yo bo‘lmasa hayf ketgan kuchalaga...»* _____.

237. «Kecha va kunduz» romanida *«Kundoshlik orqasida yuz bergan bu jinoyat zamonning nozikligi orqasida olovga tashlangan jizzadek bo‘ldi»* bu qaysi jinoyat edi ?
_____.

238. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshining o'limiga sababchi bo'lgan obraz kim ?
_____.

239. «Kecha va kunduz» romanida to‘rt chaqaga arzimagan bu qurbon kim edi ?
_____.

240. «Kecha va kunduz» romanida *«Munday shoshilinch sud urush maydonlarida bo‘lmasa, boshqa joyda bo‘lishiga aqlim yetmaydi!»* deb piching qilib gapirgan obraz ? _____

241. «Kecha va kunduz» romanidan olingan bu odam kim ? *«Bu odam eskidan beri sudlarda ishlab, muttahamlikka guvohnoma olgan qadrdon tulkilardan emas, negadir chetdan, xolis kishilar*

orasidan chaqirilgan edi. Uni shahar odamlari, ayniqsa, yerli xalq kam taniydi. Nihoyati, pochtada ishlovchi (o‘zi yerli xalqdan yetishib qolgan!) pastroq bir ma’mur...» _____.

242. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parcha kim haqida ? *«Bu odam, yo‘q, bu zot Turkiston o‘lkasining qaysi bir olis joyida (Zakaspiyda emasmikan?) davlat xazinasining ko‘pgina pulini yeb qo‘ygan askariy bir to‘ra. Agar haqiqiy qonunlarga amal qilinganda, uni yo otish, yo umrlik surgun qilish shart edi. Faqat u o‘zi juda issiq mamlakatda yashasa ham, boshida qalin-qalin soyabonlari bor ekan, ular o‘z kishilarini butunlay kuydirib tashlashga yo‘l qo‘ymaganlar»* _____.

243. «Kecha va kunduz» romanida Rusiyada inqilobdan burun dong‘i chiqqan advokat kim edi ? _____.

244. «Kecha va kunduz» romanida Rusiyada inqilobdan burun dong‘i chiqqan advokatga o'xshatilgan obraz ? _____.

245. «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchada ko'p nuqtalar o'rniga mos keladigan qahramon nomini topib yozing. *«Shaharda bo‘lsin, uezdda bo‘lsin, uni tanimagan odam yo‘q, o‘zi yerlilardan. Yerli xalq uni — «... » deb ataydi. O‘rta bo‘yli, qopqora tanli arvoh, qotma bir kishi... Bu zakunchi — ruslardan chiqqan «advokat» bo‘lsa, U — yerli xalqlardan chiqqan «advokat»...”* _____.

246. «Kecha va kunduz» romanida *«Kofir bilan itning farqi yo‘q. Itdan qochmaysizmi? Shunday bo‘lsa, kofirdan ham qochmasangiz bo‘ladi. Bu joiz?»* - deb Zebiga kim aytgan ? /_____.

247. «Kecha va kunduz» romanida sud zalida *«Ana, so‘roq tamom bo‘ldi. Endi uyimni qandoq qilib topib boraman?»* deb kim o‘ylagan ? _____

248. «Kecha va kunduz» romanida sud zalida ushbu so'zlarni kim aytgan ? *«Men urush vaqtining nozik paytlarida bo‘lgan bu o‘ldirishga oddiy o‘ldirish kabi qarayolmayman. O‘ldirilgan odam Rusiya davlatiga va podshoga sadoqati bilan tanilgan odam edi. Uni «yosh sart» maxfiylari, ayniqsa, ularning dushmanimiz bo‘lgan Turkiya bilan, fikran bog‘lanishgan unsurlari yomon ko‘rardilar. Men bu «sodda» va «guvohsiz» sart ayolining shunday unsurlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘lmaganidan amin emasman... Biz sart xalqiga allanechuk beparvolik bilan qarab o‘rganganmiz; qo‘yday «yuvosh, ular!» deymiz»* _____.

249. «Kecha va kunduz» romanida sud zalida kim Zebiga oliy jazo so'rab shunday deydi: *«...men bu «soddadil», «yuvosh» va «gunohsiz» sart qiziga eng oliy jazo talab qilmoqchi bo‘laman. Modomiki, masala o‘zi bu qadar ravshan va aybdorning o‘zi o‘z og‘zi bilan iqror qilib turibdi, mayli, muzokara ochib o‘tirmasak ham bo‘ladi»* _____.

250. «Kecha va kunduz» romanida sud zalida Zebiga qanday jazo tayinlandi ?

_____

251. «Kecha va kunduz» romanida zud zaliga imom-domla nima maqsadda chaqirtitilgan edi ?

_____

252. «Kecha va kunduz» romanida sud tugagandan keyin imom-domladan nimani iltimos qilishadi ? _____

_____

253. «Kecha va kunduz» romanida sud zalidan chiqib ketgan imom-domlaga nisbatan kim aytgan: «imon yo‘q taqsirimda» ? _____**.**

254. «Kecha va kunduz» romanida maktabidan «ozod» bo‘lgan eski maktab bolalari singari sud zalidan chiqib ketgan obraz ? _____ **.**

255. «Kecha va kunduz» romanida sud zalidan eng oxirgi bo'lib chiqib ketayotganida *sharmandalik, sharmandalik* deb kim aytgan ? _____**.**

256. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi Akbarali mingboshini o'limi haqida birinchi bo'lib kimdan eshhitadi ? _____**.**

257. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi mingboshining uyiga borib bo'lib o'tgan voqealarni kimdan eshitib biladi ? _____**.**

258. «Kecha va kunduz» romanida Akbarali mingboshi o'limidan keyin kimni mingboshi qilib tayinlashadi ? _____**.**

259. «Kecha va kunduz» romanida So‘fining arz qilib boradigan birdan-bir mahkamasi qayer edi ? _____**.**

260. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi kimni nazarda tutib: *«U kishi, albatta, beraman desalar-ku, qo‘llaridan keladi; har qalay katta zakunchining ishtahasini qon-diradigan dunyolari bor. Faqat ne choraki, u kishi berib o‘rganmaganlar, olib o‘rganganlar; «O‘rgangan ko‘ngul o‘rtansa qo‘ymas», deydi. U kishini berishga o‘rgatish qiyin! U kishi shuncha badavlat bo‘lib turib, eshikdan gadoy kirsa, qo‘liga qaraydi, «nazri yo‘qmikin?» deb»* - aytadi ? _____**.**

261. «Kecha va kunduz» romanida *«U shunday kuchlik narsaki, undaqa tosh-metinlarga qarshi o‘z tosh-metinini irg‘itadi balki bir irg‘itishda parcha-parcha qilib tashlaydi...»* bu kuchli narsa nima ? _____

262. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi qizini Sibir qilinganini yig'lab turib aytganda kim uni kulib turib eshitadi ? _____**.**

263. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi qachon piriga birinchi marta ko‘zini olaytirib qaraydi ? _____**.**

264. «Kecha va kunduz» romanidan olingan to'rtlik kimning tilidan aytilgan ?

Foniy dunyo be-esh kundir, be-esh kundir, ho-ov,

So‘filik ahdi-in sindur, ahdin sindur, ho-ov.

Billur qada-ahlar birla may sungil, soqe-e,

Xonaqo qaro-o tundur, qaro-o tundur, ho-ov... _____.

265. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'figa kimlarning ovozlari — «o‘la, o‘l!» degan kabi, ta’na shaklida eshitiladi ? _____

266. «Kecha va kunduz» romanida Razzoq so'fi kimga qarab kulib shunday deydi: *«Men olaman ham, beraman ham, u kishi faqat olishni biladilar!»?* _____.

267. «Kecha va kunduz» romanida kim aytgan ? *«Bolasining yoniga nima uchun otasini jo‘natmaydi bu ahmoq o‘rus? Adolat bormi kofirda?!»* _____ .

268. «Kecha va kunduz» romanida kim aytgan ? *«...Yer, yer bo‘lib turib ilgari rizq beradi, keyin jon oladi. Olgan beradi-da! Sen nimasan, pirim, sen? Xudodan zo‘rmisan? Yerdan kuchlimisan? Olasan — bermaysan. Olasan — bermaysan...»* _____ .

269. «Kecha va kunduz» romanida eshonning ham joniga, ham moliga qasd qilgan obraz ? _____.

270. «Kecha va kunduz» romanida jinni bo‘lib paranjisiz va yirtiq kiyimlar bilan eshonnikiga kelib, Zebini juda maqtagan obraz ? _____.

271. «Kecha va kunduz» romani qaysi kuyning eslanishi bilan tugaydi ? _____.

272. «Kecha va kunduz» romanida «Yoriltosh» kuyini kim eslaydi ? _____.

«Kecha va kunduz» romanidan ochiq testlar

1. *U kishi, albatta, beraman desalar- ku qo‘llaridan keladi; har qalay katta zakunchining ishtahasini qondiradigan dunyolari bor. Faqat nechoraki, u kishi berib o'rganmaganlar, olib o‘rganganlar; «O‘rgangan ko‘ngul o‘rtansa qo'ymas», - deydi. U kishini berishga o'rgatish qiyin!* Ushbu parchada fikr yuritilgan «Kecha va kunduz» romani qahramoni nomi keltirilgan javobni aniqlang.
A) Akbarali mingboshi B) Razzoq so‘fi C) Eshon bobo D) Miryoqub

2. *- Ishga kirganiga to‘rt oy bo‘ldi-yu,*
to‘rt yillik charchadi bolam! - dedi
ona. - To'rt yillik qaridi bolam!
Bola tug‘ish, katta qilish osonmi?
K o‘cha-ko‘yda yurib, gapira
berasizlar-da! «To‘rt oy endi bo‘ldi-ya!..» Og‘zingizning bir chekkasidan chiqadi!.. Yo‘q, aravakashligi qursin! Boshqa ishga beramiz... bo‘lmadi bu.
«Kecha va kunduz» romanidan olingan
ushbu parchada onasi tomonidan
qayg‘urilayotgan aravakash obrazi nomi
qaysi javobda berilgan?
A) Hakimjon B) O‘lmasjon C) Zunnun D) Xolmat

3. *«Millatni uyg‘otish -uyg‘onganlarning vazifasi. Mana siz: ancha eslik, hushyor, ziyrak odam ko‘rinasiz. Ish bilasiz ekan. Davlatingiz bor ekan. Faqat birgina aybingiz shuki, zamon ahvolidan xabardor emassiz. Gazet o'qimaysiz»*
Jadid kattalaridan birining tilidan aytilgan millatni uyg‘otish haqidagi ushbu fikr kimga qarata aytilgan ?
A) Hakimjonga B) Miryoqubga C) Zunnunga D) Sharafiddin Xadjayevga

4. *... ga eng ma’qul bir masalani bo'lsa ham uqtirib roziligini olmoq uchun yo o'zining piri, yoki katta bir davlatga ega bo'lish kerak edi. U odam o‘z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, o‘z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun ... ning qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo'lardi...*
Ushbu parchada «Kecha va kunduz»
romanidagi qaysi qahramon haqida fikr
yuritilgan?
A) Akbarali B) Razzoq so‘fi C) Miryoqub D) Xolmat

5. *Ayb Sadriddin cho'loqning o‘zida edi. Tevarak-atrofdan ko‘p sovchi chiqdi bu qizga. Hammasini qaytardi. Ba’zilariga qiz o'zi ham roziydi, onasi ham yo‘q demasdi. Yo‘q, - dedi Sadri cho‘loq, - ikki qizimni qishloqiga berdim, bittasini shaharlikka beraman. Juda loyiq, qobil joyini topib, badavlat, obro‘lik odamga beraman!»*
Ushbu parchada Sadriddin cho’loqning qizi kim edi ?
A) Poshshaxon B) Sultonxon C) Zebixon D) Xadichaxon

6. *Qovog‘idan doim qor yog‘adi, vajohati doim qish, doim izg‘irin... Yo bir maslahatni aytib bo’ladi, yo ro‘zg‘or ishini. Koshki, boshqa mo‘min-musulmonday bir kasb qilib, besh-o‘n tanga topib kelsa... Yo‘q, yo‘q! O‘zi to‘yma-to‘y borib, qornini to‘yg‘azib kelsa bo‘ldi, boshqa bilan ishi*
yo‘q! « Uyda xotinim bor, qizim bor, ular nima yeydi?» deb o'ylamaydi.
«Kecha va kunduz» romanidan olingan
ushbu parchada ta’riflanayotgan obraz nomi qaysi javobda berilgan?
A) Razzoq so‘fi B) Eshon
C) Miryoqub D) Akbarali mingboshi

7. Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi *«Iymon yo‘q taqsirimda»* jumlasi qaysi qahramonga tegishli?
A) sud raisi B) zakunchi
C) domla D) Akbarali mingboshi

8. Qaysi qatorda «Kecha va kunduz» romanida
uchraydigan qahramonlar nomi berilgan?
A) Akbarali, Mirzakarim qutudor, Mutal
B) Zakunchi, Hasanali, Safar bo'zchi
C) Miryoqub, Eshon bobo, Zunnun
D) Razzoq so‘fi, Homid, Solih Mahdum

9. Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida *«bolasining yoniga nima uchun otasini jo‘natmaydi bu ahmoq o‘ris? Adolat bormi kofirda?!”* degan gapni kim aytadi?
A) domla B) eshon C) muridlar
D) tilmoch

10. *«...barmoqlari bir ochilib,bir yumilar, ichidan kuchli bir ovoz to‘lqini chiqib kelib, ko'cha o‘rtasida tomog‘iga yopishardi. Salom berganlar aliksiz, so‘rashganlar - javobsiz qoldilar»* - “Kecha va kunduz” romanidan olingan parcha kimning holati ?
A) Akbarali B) Razzoq so‘fi
C) Miryoqub D) Xolmat

11. Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanida qaysi adabiy qahramon, rus chor hukumati amaldoriga yerli xalqning noyob qo‘lyozma asarlari tuhfa qilib yuborgani uchun bir jadid tomonidan *“...mamlakatning tarixi adabiyotiga oid qimmatbaho asarlarni tekinga berish hamda bir rus amaldoriga berish bilmadim, nimaga teng? Menimcha, bu millatga xiyonat! Unday asarlarni siz to‘plangiz, milliy kutubxona tashkil qilaylik. To‘g‘ri yo‘l shu*”, - deya tanqid qilinadi.
A) Sharafiddin Xo‘jayev B) Miryoqub epaqa C) Abdusamadboy D) Akbarali Mingboshi

12. *“Bizdan necha baravar kichkina millatlar mustaqil bir hukumat qurib, o‘z davlatlari ila Ovro‘paning, shu madaniy Ovro‘paning markazida, ya’ni kindigi singari joyda yashaydi. Toshkent tramvayini o‘shanaqalar aylantiradi... Bizning baxtsizligimiz - nodonligimizda, xolos. Millat uyg‘onsin, ko'zini ochsin, o‘qisin, bilim olsin, madaniy millatlar qatoriga kirsin, so'ngra u ham o‘z davlati, o‘z baxti, o‘z saodatini quradi...”*- “Kecha va kunduz” romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ?
A) Sharafiddin Xo‘jaev B) Miryoqub C) Akbarali mingboshi D) Eshon bobo

13. *“Kecha va kunduz”* romanida jadidlarning kattalaridan biri bilan hamsuhbat bo‘lgandan keyin: *“G‘alati ahvolga tushib qoldim men. Miyam g‘ovlab ketmasa, deb qo‘rqaman. Ilgari tinchgina pul topishimni bilardim, yana jadidlar bilan ko‘p so‘zlashmoq kerak, gazet o'qish kerak. Har kuni - har kuni yangi gazetalarni o'qish kerak...”* – deya fikrlagan, dunyoqarashi o‘zgargan qahramon nomi qaysi javobda berilgan?
A) Akbarali mingboshi
B) Abdusamat mingboshi
C) Hakimjon D) Miryoqub

14. *“... jadidlarning deganlarini boshqalarning deganlaridan ko‘ra osonroq va tezroq anglayman... Yo ular o‘zlari shunaqa chechan odamlarmikan? Bizning Shahobiddin domla to‘rt og‘iz gapirguncha odamni sil qilib yuboradi. U gapirganda - o‘z gapiga o‘zi ham ishonolmaganday gapiradi... Hech bir ta’siri yo‘q! Yo‘q, bizning musulmonlar ham endi tartib, nizomga tushmasalar bo‘lmaydi!”* “Kecha va kunduz” romanidan olingan parcha kimning tilidan aytilgan ?
A) Sharafiddin Xo‘jaev B) Miryoqub
C) Akbarali mingboshi D) Eshon bobo

15. *“Kecha va kunduz”* romanida tasvirlanishicha, Hakimjon qaysi qahramonning ishbilarmonligi, epchilligi,
ziyrakligiga tan berib, u haqda: *“U agar haq yo'lni topsa, bormi, noyob odam bo'ladi”,* - deya fikr bildiradi?
A) Miryoqub B) Akbarali mingboshi
C) Hasanov D) Zunnunboy

16. *Kulmasdan chidab bo‘lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish - kasal odamning kulishiday og‘ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg‘on xushomadlarday ko‘ngilga uruvchi bo‘lardi.* Ushbu parchada “Kecha va kunduz” romanidagi qaysi badiiy qahramoni tasvirlangan?
A) Akbarali B) Razzoq so‘fi
C) Miryoqub D) Xolmat

17. “Kecha va kunduz” romanidagi o‘ziga xos xarakterga ega bo'lgan, hatto o‘z oilasi ham uning fe’lidan aziyat chekkan, faqat bir kishining xohishi bilangina ish tutadigan, jadidnamo bir hamshahri: *“Ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa maxluqlardan edi”* – deya ta’riflagan qahramon kim?
A) Miryoqub B) Eshon
C) Razzoq so‘fi D) Akbarali mingboshi

18. *Bu yigit boshqacha chiqdi. Men izlagan pir shu bo‘lsa-ya. Nima uchun men shu vaqtgacha jadidlarni so‘kib kelganman? Agar jadid shu bo'lsa, nimaga men jadidchi emasman?... Mana endi jadidni ko'rib o'tiribman. Erta-yu kech gapiga quloq solaman, qulog'imni uning og'zidan uzib ololmayman... O'zi ham badavlat odam. Halol kasb qilib pul topishni, dunyo orttirishni bilar ekan... Bu yomonmi?*
“Kecha va kunduz” romanidan olingan
ushbu parchada qaysi qahramonning jadidlar haqidagi o‘y-fikrlari tasvirlangan?

A) Razzoq so'fi B) Miryoqub
C) Hakimjon D) Akbarali mingboshi

19. “Kecha va kunduz” romanida turkiy xalqlarning adabiyotini,ayniqsa, fors tili va adabiyotini, juda yaxshi biladigan, hatto *Ado* degan bir shoirning go‘zal bir baytini tahlil qilib mudarris Shahobiddinning xato qilganligini aytib, *“Sizning domlalaringiz munaqa narsalarni yaxshi bilishmaydi”* deya tanqid qilgan obraz kim ?
A) Akbarali mingboshi
B) Abdusamat mingboshi
C) Noyib to’ra D) Miryoqub

20. *“Oqpodshoh bo‘lsin-u, yetmish ikki toifaning tilini biladigan tilmochlar bo‘lmasin! U tilmochlar tomonidan tarjima qilinib berilgandan keyin, bu maktubni Oqpodshoh, albatta, o‘qib eshitajak. . . balki o‘zi gazetning*
tiliga tushunsa. . . qo‘l ostida shuncha toifa yashaydigan bir podshoh o‘z fuqarolarining tilini bilsa ajabmi?”
“Kecha va kunduz” romanida qaysi qahramonining xarakter-xususiyatini
ochib berishda muallif uning ana shunday
o‘y - xayollari tasvirini keltiradi?
A) Akbarali mingboshi
B) Abdusamat mingboshi
C) Noyib to’ra D) Miryoqub

21. “Kecha va kunduz” romanida voqealar rivoji mobaynida qaysi qahramonning dunyoqarashida, millat va xalq haqidagi o‘y-fikrlarida keskin o‘zgarishlar bo‘lib, bu o‘zgarishlarni o‘zi ham: “Jadidlar to‘g‘risida gumonlarim yo‘q emas. Lekin ko‘nglim o‘sha tomonga moyil bo‘lib qoldi. Men ham endi “millat odam bo‘lsin!” deyman. “Ota-bobolar yo‘li haq” deyishga endi tilim bormaydi. Jadidlarni ham “bular − haq!” deb ochiq aytolmayman” , − deya e’tirof etadi?
A) Akbarali mingboshi
B) Abdusamat mingboshi
C) Hakimjon D) Miryoqub

22. “Kecha va kunduz” romanida avvaliga qizini: *“Umrida peshonasi sajda ko‘rmagan odamga qiz beramanmi”* , − deya uzatishga unamagan Razzoq so’fi kimning gaplaridan so‘ng, qolaversa, boylik ilinjida qizini kundosh ustiga uzatadi,keyinchalik qizining ayanchli qismatidan iztirobda qoladi ?
A) ayoli – Qurvonbibi B) Eshon bobo
C) Miryoqub D) Akbarali mingboshi

23. “Kecha va kunduz” romanida *“Farzanddan va esdan mahrum, lekin yer-suv, pul va boshqa boylikka ko'milgan”* – deb ta’riflangan qahramon kim edi?
A) Miryoqub B) Akbarali mingboshi
C) Ostanaqul boy D) Noyib to'ra

24. *«Men urush vaqtining nozik paytlarida bo'lgan bu o'ldirishga oddiy o'ldirish kabi qarayolmayman... Mana shu nuqtalardan qarab, men bu «soddadil», «yuvosh» va «gunohsiz» sart qiziga eng oliy jazo talab qilmoqchi bo'laman».*
Zebiga qarshi aytilgan yuqoridagi mulohazalar «Kecha va kunduz» romanining qaysi qahramoniga tegishli?
A) sud raisi B) zakunchi

C) garnizon boshlig'i D) prokuror

25. Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida qanday gapni „. . . haligi ikki boy bilan Abdusamat kaptarlarni qanotiga ilib, shamolning qo'ltig'igam qistirib, yomg'irlarning tomchisiga joylab, bulutning qo'yniga solib uchiradi, har bir uchgan qarg'a shuni aytib qog'illaydi. . .", deb ta'riflaydi?
A) "Akbarali mingboshi yana uylanibdi"
B) "Akbarali mingboshining ustidan ariza tushibdi"
C) "Akbarali mingboshining xotini Sibirga surgun qilinibdi"
D) "Akbarali mingboshi amalidan bekor bo'libdi"

26. Quyidagi parcha Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidagi qaysi adabiy qahramon haqida?
«... chor hukumati ma'murlari «to'rt
chaqaga arzimagan bu qurboni zamon»ni yangi fath etilgan «vahshiy» xalq orasidan yetishgan ziyrak, yetuk, toj-u taxtga sadoqatli siyosat arbobi sifatida ko'rsatmoq istaydilar...»
A) Zunnun B) Miryoqub
C) Akbarali mingboshi D) Noyib to'ra

27. *"Ko'plar bu shoshilish savdoni bilmadilar; bilganlar Miryoqubni «jinni bo'libdi», dedilar… odamlar Miryoqubni «jinni» demadilar, balki «bu — bir narsani bilib qiladi», dedilar"*
"Kecha va kunduz" romanidan olingan parchada Miryoqubning qaysi qilgan ishi nazarda tutilmoqda ?
A) Miryoqubning Mariya ismli qizni olib Qrimga ketganligi
B) Miryoqubning eski qo'lyozma kitoblarni Noyib to'ra topshirishi
C) Miryoqubning suvsiz, noobod, tashlandiq yerlarning sotib olganligi
D) Miryoqubning jadidlar tomoniga o'tib ketganligi

28. "Kecha va kunduz" romanida Akbarali mingboshi o'lgach uning o'rniga kim mingboshi qilib tayinlanadi ?
A) noyib to'ra B) Miryoqub
C) Hakimjon D) Zunnun

29. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida qaysi qahramonga *"... belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo'lmasa, hech kim uni amaldor demaydi",* - deya ta'rif beriladi?
A) Noyib to'raga B) Miryoqubga
C) Akbarali mingboshiga
D) rus mirzasi Sokolovga

30. "Kecha va kunduz" romanida *"Hamma suvni mingboshining yerlari ichadi-yu, bizga tegmay qoladi. Shunaqa qilib, necha yildan beri ekinlarimiz qurib ketayotibdi"* ,- deb Noyib to'raga ariza bergan qumariqliklarning boshida turgan "obro'li odamlar" kimlar?
A) Yodgor echki va Umarali puchuq
B) Ostonaqulboy va Abdusamad mingboshi
C) Inoq mirshabi Mirza bobo va tegirmonchi Shamsiddin
D) Eshonbobo va To'raqul bo`lus

31. *"Ertadan kechgacha kundoshlari bilan o'pishadi, gapiradi, ashula qiladi, kuladi, kuldiradi, tegishadi, hazil qiladi, qitiqlaydi, qochadi, quvlaydi, quvlashadi"*.

Ushbu parchada “Kecha va kunduz” romanidagi qaysi qahramon o‘ylari aks ettirilgan?
A) Zebi B) Enaxon C) Sultonxon
D) Poshshaxon

32. “Kecha va kunduz” romanida *«Endi bir o‘q bilan ikki qushni ag‘darish kerak»* - deya tuzilgan qabih rejaning oqibati qaysi javobda berilgan ?
A) Zebi Akbarali mingboshi xonadoniga to’rtinchi xotin bo’lib tushdi.
B) Razzoq so’fining qishloqqa borish rejasi barbod bo’ldi.
C) Akbarali mingboshi o’ldi, Zebi esa qamaldi.
D) Sultonxon o’ziga ovunchoq qilib, Hakimjonni tanladi.